



**Tabiat va inson o'rtasidagi qonuniyatning buzilishi o'nglab bo'lmas falokatlarga olib kelishi mumkin**

4-5-betlarda o'qing



**Hayotimiz gullarisiz, Ayollar!**

8-betda o'qing

# INSON va qonun

2024-YIL  
5-MART  
SESHANBA

No 09  
(1421)

www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari



**"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!**



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)



*Onalar oyog'i ostidadur  
Ravzayi jannatu jinon bog'i.  
Ravza bog'i visolin istar esang,  
Bo'l onaning oyog'in tuprog'i.*

**Alisher NAVOIY**



*Ayol fidoyilikni tushunibgina qolmay, o'zini fido qilishni ham biladi.*

**I. S. TURGENEV**



*Ayollarga xos boqiy nazokat yaxshi erkaklarga hamisha qanoat bag'ishlab kelgan.*

**R. ROLLAN**



*Ayolni inson sifatida ko'rish va qadrlash – zaruratgina emas, balki axloqli kishilarimizga nasib etishi mumkin bo'lgan muhabbatning bosh sharti hamdir.*

**I. GYOTE**



*Bukilmas qat'iy prinsipialligini ko'z-ko'z qilmaydigan, nima ish qilsa ham o'ziga yarashadigan kamtar va iffatli ayoldan go'zalroq nima bor?*

**A. A. FADEYEV**

*Ayol mo'tabar,  
ayol mugaddas!*





## 2 JARAYON

### “HECH BIR SHAXS HUJJATSIZ QOLMAYDI”



**Farg'ona viloyatining olis Furqat tumanida ham mazkur aksiya doirasida xonadonma-xonadon yurib, xatlov o'tkazildi. Natijada tug'ilish, nikoh, ajrim yoki o'lim holatlari o'z vaqtida qayd etilmagan, ya'ni ana shu hujjatga ega bo'lmagan 180 nafar fuqaro borligi aniqlandi.**

Shulardan biri “Hayit” mahallasida yashovchi, bolalikdan nogironligi bo'lgan – Sh. Normatovning ham muammosi hal bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, Sharobiddin shuncha vaqtdan buyon rafiqasi Z. O'rinova bilan qonuniy nikohsiz yashab kelgan. Aksiya doirasida ularning qonuniy nikohi yashash xonadonida qayd etildi.

Shuningdek, 65 yoshli E. Ergashev birinchi turmush o'rtog'i bilan qonuniy nikohdan ajrashgan bo'lsa-da, 30 yildan buyon ikkinchi ayoli – fuqaro Z. Nazirova bilan shar'iy nikoh asosida yashab kelgan. Bu juftlikning ham qonuniy nikohi o'z uyida rasmiylashtirildi. Uzun chek qishlog'ida yashovchi, 76 yoshli H. Umarova esa bir necha yil avval tug'ilganlik guvohnomasini yo'qotib qo'ygan. Binobarin, onaxonga yangi tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yashash xonadonida topshirildi.

Umuman olganda, aksiya doirasida tumanimiz bo'yicha tug'ilganlik guvohnomasini yo'qotgan 50 nafar, qonuniy nikohdan o'tmay yashayotgan 38 ta, ota-onasi yoki boshqa yaqinlarining o'lim guvohnomasi yo'qotilgan 60 nafar, qolaversa sud qaroriga binoan ajrashgan bo'lsa-da, ajrim guvohnomasi olmagan 1 ta oilaning hujjatlari rasmiylashtirildi. Shuningdek, tug'ilishni tiklash masalasi sudda ko'rilayotgan 3 ta oilaga FHDY bo'limi xulosasi berildi.

**Xosiyatxon MAMAJONOVA,**  
Furqat tuman FHDY bo'limi mudiri

### ISHDAN BO'SHASH HAQIDAGI ARIZANI TOPSHIRISH TARTIBI QANDAY?



**Mehnat kodeksining 160-moddasi birinchi qismiga ko'ra, xodim ish beruvchini o'zining mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi istagidan umumiy qoidaga asosan, o'n to'rt kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirishi kerak.**

Mehnat kodeksining 160-moddasi uchinchi qismida xodim mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi arizani pochta jo'natmasini topshirish haqidagi xabarnoma bilan yuborishga haqli ekan ko'rsatilgan. Xatni qabul qilib olgan mas'ul shaxsning imzosi va sanasi ko'rsatilgan pochta blanki xodimda qoladi. U mehnat shartnomasini bekor qilish haqida ariza haqiqatda taqdim etilganining isboti bo'lib xizmat qiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi ogohlantirish muddatini hisoblab chiqarish ish beruvchi tomonidan ariza olingan sanadan so'ng keyingi kundan boshlanadi.

#### HUJJATLARNI QANDAY OLIISH MUMKIN?

Aytaylik, xodimdan ariza qabul qilindi, ro'yxatga olindi va ish beruvchi bilan kelishildi. Shundan so'ng, Mehnat kodeksining 170-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasini o'z xohishiga ko'ra bekor qilish haqida standart mazmundagi buyruq tayyorlanadi. Ish beruvchi Mehnat kodeksining 171-moddasi qoidalariga asosan, mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni xodimga uning mehnat daftarchasini yoxud elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmani, shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqning ko'chirma nusxasini berishi shart. Mabodo xodim hujjatlarni olish uchun o'sha kuni kelolmagan taqdirda, unga buyruqning ko'chirma nusxasi pochta jo'natmasini topshirish haqidagi bildirishnoma bilan yuboriladi.

**Muslimbek USMONALIYEV,**  
Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

**Bugun biz tezkor global aloqa olamida yashayapmiz. Har bir inson ko'zni qamashtiruvchi, tezlik bilan kelgan texnologik o'zgarishlar bilan yaxshi tanish. Matnlarni, tovush yoki vizual tasvirlarni yozib olish va uzatishning yangi usullari ko'paydi. Raqamli texnologiya bilimlarni saqlash, tarqatish va olish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratdi.**

### ELEKTRON TIZIMNING IMKONIYATLARI CHEKSIZ, AMMO...



Bu texnologiyalar butun dunyo bo'ylab odamlar o'rtasida muloqot qilish, shuningdek, madaniy sohalarni rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar badiiy asarlar va boshqa turli janrdagi kitoblar, ilmiy-amaliy qo'llanmalar, darsliklardan ham foydalanish uchun katta imkoniyat va qulayliklarni taqdim etmoqda. Elektron resurslar to'plami har bir kutubxonada fondining asosiy tayanchiga aylanmoqda.

Elektron kutubxonalar internetning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Kutubxonada deganda, odatda, ko'plab kitoblar terib qo'yilgan, uzun, katta javonlar joylashgan xonalar ko'z oldimizga keladi. Elektron kutubxonada esa javonlar vazifasini jildlar, kitoblar vazifasini esa internet sahifalari bajaradi. Bu kutubxonaning barcha qimmatli ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'ladi, ular kompyuterda joylashadi.

Elektron kutubxonalardan foydalanish juda qulay. Tizim orqali siz dunyoning ixtiyoriy nuqtasidagi elektron kutubxonada ma'lumotlaridan foydalana olishingiz mumkin. Yana bir qulay tomoni, zarur ma'lumot nusxasini ko'chirib olishingiz mumkin. Elektron kutubxonadan foydalanishingiz uchun kompyuter va internet tarmog'i bo'lishi yetarli. Faraz qilaylik, biror-bir ma'lumot bilan tanishish uchun elektron kutubxonadan foydalanmoqchisiz. Kompyuter va internet yordamida ma'lumotni bir necha daqiqada topishingiz mumkin. Siz izlagan ma'lumot dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan bir zumda kompyuteringiz ekranida tasvirlanadi. Buning uchun kompyuteringiz tugmachasini bosishingiz va elektron kutubxonaga kirishingizning o'zi yetarli. Bir necha daqiqada ma'lumot ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Bu mo'jiza emasmi? Biz bugun anchayin ko'nikkan bu mo'jiza virtuallik deb ataladi. Bir necha yil avval bir maqolani topish uchun oylab vaqt sarflash zarur edi. Bugun esa bu maqsadni amalga oshirish uchun boshqa shaharga borish va vaqt sarflash zarurati yo'qoldi. Qulay va tezkor ishlaydigan elektron kutubxonalar yordamga keldi.

Fan-texnikaning rivojlanishi insoniyat olamiga olamshumul natijalar keltirdi. Insonning og'irini yengil qildi, yumushlarini kamaytirdi. Masalan, odatiy qog'oz hujjatlardan elektron

hujjatlarga o'tilgani bunga misol bo'la oladi. Bu jarayon bizga ko'plab imkoniyatlarni berdi. Hujjatlarning elektron tizimda bajarilishi, qabul qilinishi, yaratilishi va umuman mavjudligi ustidan nazorat tez va oson yo'lga qo'yilgani yuridik va jismoniy shaxslar uchun juda ko'p qulayliklarni yaratdi.

Elektron hujjat aylanishi esa hujjatlarni tezroq yaratish, qidirish, qayta ishlash va tarqatish, shuningdek xulosalar, hisobotlarni avtomatik ravishda tuzishni ta'minlaydi. Eng muhimi, hujjatlarning maxfiyligi yaxshilandi. Umuman olganda, maxfiylik muammosi juda keskin masaladir. Ba'zi kompaniyalar hujjatlarning yo'qolishi millionlab yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Bu jarayonda shaxsning daxlsizligiga putur yetishi mumkin. Elektron tizim qanchalik qulayliklarga ega bo'lmasin, uning salbiy tomoni ham mavjud. Hujjat saqlanayotgan kompyuterga virus tushib, tizim ishlamay qolishi ham mumkin. Lekin bunga e'tiborli bo'lish bilan muammoni hal qilsa bo'ladi.

Ta'lim tizimida esa masofaviy ta'lim tizimini tashkil qilishda informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanilmoqda. Elektron pochta, internet, video konferensiya, audio, video ma'lumotlar va multimedia vositalarining foydasi katta bo'lmoqda. Tibbiyot sohasida esa jarrohlik amaliyotini zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirish orqali bemorlarning tuzalish bo'yicha foiz ko'rsatkichlari o'sdi. Biz hozir bir nechtagina foydali bo'lgan imkoniyatlardan namunalar keltirdik xolos. Aslida elektron tizimning imkoniyatlari cheksiz va kun sayin ortib bormoqda.

Ammo bu qulayliklar biz o'ylagandek faqatgina yaxshilik uchun xizmat qilmayapti. Biz zamonaviy texnikalar orqali dunyoda yuz berayotgan yangiliklar va o'zgarishlardan xabardor bo'lamiz, lekin ular bizni qabohat va jaholatga yetaklovchi manbaga ham aylanib bormoqda. Birgina uyali aloqa tizimi insoniyatni, ayniqsa, yoshlarni har xil qaramlik kasalligiga duchor etayotgani ham hech birimizga sir emas.

Ana shunday salbiy holatlarning oldini olish yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi, albatta. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida joriy qilinayotgan turli dasturlar qatorida Toshkent davlat yuridik universitetida ham elektron kutubxonalar yaratish va uning imkoniyatlarini kengaytirish ishlariga jiddiy kirishilgan. Oliyog'ohda AKBT dasturi amalda joriy qilingan. Mazkur dasturni ishga tushirish orqali foydalanuvchilarga masofadan axborot-kutubxonalar xizmati ko'rsatish tizimini rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talaba yoshlarning axborot-kutubxonalar resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda axborot-resurs markazida saqlanayotgan adabiyotlarning elektron kutubxonasini yaratish, filial yoki bo'limlarini yagona dasturiy kompleksga jamlash va ularni yagona veb-platforma tizimiga birlashtirishga kirishilgan. Boshqa axborot-resurs markazlari bilan elektron hamkorlikni takomillashtirish, eng so'nggi veb texnologiyalar asosida adabiyotlarni bir joyga jamlash ishlari olib borilmoqda. Bu jarayonda mamlakatimizdagi axborot, kommunikatsion texnologiyalar sohasi rivojiga hissa qo'shish, aholining fan va ta'limga oid elektron axborot resurslar bilan shug'ullanadigan, mazkur ma'lumotlarga talabi mavjud bo'lgan qatlamlarini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash, aholiga masofadan turib ma'lumot olish, qayta ishlash va foydalanish imkoniyatlarini yaratish maqsad qilingan.

**Dilnara SHAMAYEVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi xodimi



2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” deb e'lon qilinishi mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan islohotlarning ustuvor va mantiqiy davomi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa “O'zbekiston – 2030” strategiyasining yoshlar va tadbirkorlik sohasidagi maqsadlariga to'liq mos keladi. Xususan, strategiyada yoshlarning zamonaviy kasblar bilan shug'ullanishini ta'minlash maqsadida har bir viloyatda “Kreativ park”lar yaratilishi, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish, har yili 500 nafar iste'dodli yoshlarni xalqaro oliy o'quv yurtlariga jo'natish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.



## HUQUQSHUNOS TALABALAR GLOBAL SAHNALARDA

Bu sohada Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarini ham faol iqtidorli talabalarimiz har jabhada global sahnalarni egallab kelishmoqda. Jumladan, Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 4-kurs talabasi Murodullo Xasanov Erasmus programmasining akademik mobillik dasturi doirasida Polsha davlatida tahsil olish uchun grant yutib oldi. Yosh, umidli talabamiz ushbu grantni qo'lga kiritish va grant doirasida erishayotgan hayotiy va ilmiy bilimlari, tajribalarini biz bilan o'rtoqlashdi.

– Erasmus sari birinchi qo'yilgan qadam xorijiy tilni bilish darajasi uchun harakatdan, ya'ni sertifikat olishimdan boshlangan edi, – deydi u biz bilan suhbatda. – Talabada muloqot uchun yetarli til bilish darajasi bo'lishi mumkin, lekin uni sertifikatga muhrlamaguncha, akademik mobillik kabi dasturlarda qatnashish istagi biroz so'roq ostida qoladi. Ikkinchi eng kerakli aspekt talabani universitet va jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotida faolligidir.

Ilm olishda muhim jihatlardan biri – yaxshi bir ustozning etagidan tutishdir. Xorijda kuzatgan va men havas qilgan bir jihat – professor-o'qituvchi bilan olib borilgan ilmiy ishlar, maqolalar yuqori baholanadi. Ancha paytda sizning bilimingizni ko'rib, unga amin bo'lib borayotgan professor-o'qituvchilarning talabaga bergan tavsiya xati, grant yutishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Chet elda o'qishning eng yaxshi jihatlardan biri yaxshi networking muhitining mavjudligidir. Turli yurtlardan kelgan talabalar, turlicha madaniyatlar va turfa insonlar... Bunda, albatta, kirishimlilik asqotadi. O'zaro yaxshi munosabat, do'stona aloqalar kelajakdagi ta'lim uchun ham yangi yo'llarni ochadi.

Chet ellik talabalar bilan muloqotlar, intellektual o'yinlar, ulardagi turfa xil fikrlar talabani dunyoqarashi o'sishiga katta hissa qo'shadi. Bu yerda anglab yetgan narsam shu bo'ldiki, biz ancha kam o'qir ekanmiz. Yevropaga, aynan Polshaga kelishimdan oldin

ko'pchilik u yerda o'qish qiyin emas, degan edi. To'g'ri, bir tomondan shunday ko'rinishi mumkin, lekin talabalarni yuragidagi shijoatni, ko'zida chaqna turgan ilmga bo'lgan ishtiyoqni ko'rib, fikrim o'zgardir.

Kutubxona, darsxonalar ba'zan tun yarmiga qadar bo'shamaydi, talabalar bilan liq to'la. Biri kitob varaqlagan, ikkinchisi kompyuterida nimalardir o'qish bilan band. Angladimki, bu yerda ta'lim ulashilyapti, xohlaganingizcha olib qoling, lekin majburlash yo'q. Professor-o'qituvchilar siz bilan do'stona gaplashib, tushunchangizni baholashga harakat qilishadi, fakt va raqamlar bilan ishi yo'q.

Murodullo Xasanov global sahnadan turib talabalarimizga motivatsiya ulashdi. Biz esa uning shijoatiga, zehninga, ziyrakligiga havas qildik. Orzu-umidlari ushalishiga, yetuk va tajribali kadr bo'lib yetishishiga tilak bildirdik.

Darhaqiqat, yoshlarga oid davlat siyosati, avvalo, har bir davlatning ichki siyosati bo'lib, yoshlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosati hech qachon yakunlangan tizimni anglatmaydi. Bu sohadagi izchil va hayotbaxsh islohotlar davr talabi va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib, takomillashtirib boriladigan uzluksiz jarayondir.

**Oyshajon USMONOVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
katta o'qituvchisi

### ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

Mirzaobod tuman adliya bo'limi tomonidan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limida xodimlarga ish haqi va boshqa to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan monitoring o'tkazildi.

## AYRIM XODIMLARGA TO'LANISHI LOZIM BO'LGAN TO'LOVLAR TO'LANMAGAN



Monitoring davomida tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limida ishlab, 2023-yilning dekabr oyida homiladorlik ta'tiliga chiqqan 21 nafar xodim (16 nafari umumta'lim maktablari va 5 nafari maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari)ga jami 162 million 690 ming so'm homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa pullari to'lab berilmagani aniqlandi.

Vaholanki, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining (2002-yil 8-mayda ro'yxatdan o'tgan) buyrug'i bilan tasdiqlangan “Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida”gi Ni-

zomning 5-bandiga asosan nafaqa, mehnat qobiliyati tiklangan, nogironlik belgilangan, homiladorlik va tug'ish ta'tili tugagan, vafot etgan yoki bola tug'ilgan kundan boshlab 6 oy muddat ichida murojaat qilinganda to'lanadi. Bunda, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi uni olish uchun murojaat qilingan kungacha bo'lgan 12 oydan oshmagan davr uchun beriladi.

“

Shuningdek, ushbu Nizomning 7-bandida nafaqa oqiga bir marta – oqning ikkinchi qarmi uchun beriladigan ish haqi bilan birga to'lanadi, deb ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, Mehnat kodeksining 404-moddasida ayollarga tuqqunga qadar yetmish kalendar kun va tuqqanidan keyin ellik olti kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan holda – yetmish kalendar kun) muddati bilan homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanishi, homiladorlik va tug'ish ta'tili jamlangan holda hisoblab chiqilib, tug'ishga qadar amalda bunday ta'tilning necha kunidan foydalanilganidan qat'i nazar ayolga to'liq berilishi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarga asosan Mirzaobod tuman adliya bo'limi tomonidan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga taqdimnoma kiritilib, 21 nafar xodimga 162 million 690 ming so'm miqdoridagi homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa pullari undirib berildi.

**Hokimbek ERKABOYEV,**  
Mirzaobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

Termiz tuman adliya bo'limi tomonidan “Bahoriston Bog'u Bo'ston” fermer xo'jaligi rahbari Z. Sultonovning xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining 2020-yil 28-apreldagi 38/VI-5-sonli hamda tuman hokimining 2020-yil 11-maydagi 497-sonli qarorlariga asosan yer ijara shartnomasi asossiz ravishda bekor qilinganidan norozi bo'lib, yo'llagan murojaati o'rganildi.

## HOKIM QARORI BEKOR QILINDI



Tuman adliya bo'limi tomonidan ushbu murojaat mutaxassislarining xulosalari va mavjud hujjatlar asosida o'rganilganda, haqiqatan ham, xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimining tegishli qarorlari asossiz qabul qilingani ayon bo'ldi. O'rganish natijalariga ko'ra, 2024-yil 22-yanvarda Termiz tumanlararo ma'muriy sudiga Termiz tuman hokimining 2020-yil 11-maydagi 497-sonli qarorini haqiqiy emas, deb topish to'g'risida da'vo arizasi kiritildi.

Da'vo ariza sud tomonidan to'liq qanoatlantirilib, hokim qarori haqiqiy emas, deb topildi va tumandagi yana bir tadbirkorning qonuniy huquqi tiklandi.

**Bahodir ASHUROV,**  
Termiz tuman adliya bo'limi boshlig'i



## 4 DOLZARB MAVZU

## TABIAT VA INSON O'RTASIDAGI

## O'NGLAB BO'LMAS FALOKATLARGA

Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarb va global muammo bo'lib, bu aholi genofondiga hamda boshqa tirik mavjudot va bioxilma-xillikka katta xavf solmoqda. Tabiat va inson o'rtasidagi qonuniyatlarning buzilishi o'nglab bo'lmas falokatlarga olib kelishi mumkin.

Insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay jadal yuritilgan xo'jalik faoliyati, iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, ichimlik suvi ifloslanishi va yetishmasligi, o'rmon va tuproq inqirozi, bioxilma-xillik qisqarishi, ortiqcha hajmdagi chiqindilar hosil bo'lishiga, yerning tanazzulga uchrashiga, o'rmonlarning yo'q bo'lishi va hokazolarning ro'y berishiga olib keldi. Natijada butun dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli-tuman kasallik turlari ham ortib borayotgani, albatta, xavotirga soladi kishini.



Shuning uchun ham bugungi kunda, ekologik salomatlik masalasi milliylikdan xalqaro miqyosda rivojlanib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan doimiy e'tibor predmetiga aylandi.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, aholining salomatlik holati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga – **50-60 foiz**, ekologik muammolarni hal etishga – **20-30 foiz** va faqat sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga – **15-20 foiz** bog'liqligi ta'kidlangan.

### HAR YILI 7 MILLION KISHI HAVO IFLOSLANISHI TA'SIRIDAN VAFOT ETMOQDA

Ekologik muammolar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy maqomga ega bo'lgani uchun uni davlatning ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi.


Hozirgi kunda O'zbekiston uchun kuchayib borayotgan qum va chang bo'ronlari muammosi har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki mamlakat hududining katta qismi dasht va cho'llardan iborat. Bu global muammolarni hal qilish uchun barcha darajalarda kompleks choratadbirlarni ko'rish masalasi Davlatimiz rahbarining nazoratida turgani ham bejiz emas.

Bu masalada BMTning cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiau qum va chang bo'ronlari barqaror rivojlantirishga erishish uchun katta muammo tug'dirayotganini, biroq bu xavfni yanada og'irlashtirish ham, bartaraf etish ham insonlarning qo'lida ekanini alohida ta'kidlagan edi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, "Markaziy Osiyo va Xitoy atmosferaga chang chiqarish bo'yicha dunyo miqyosida (Sahroyi Kabir cho'lidan keyin) ikkinchi o'rinda turishi – bu umumiy miqdorning taxminan 20 foiziga teng"ligi aniqlangan.

BMTning "Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyasiga (UNCCD) ko'ra, qum va chang bo'ronlari yetarlicha e'tibor berilmagan

muammo bo'lib, hozirda dunyoning ba'zi joylarida "sezilarli darajada" keng tarqalgani ta'kidlanmoqda.

Eng achinarlisi, har yili atmosferaga Gizadagi 350 ta piramida og'irligiga teng bo'lgan ikki milliard tonna qum va chang tarqalmoqda. UNCCD ekspertlarining fikricha, bu hodisaning 25 foizdan ortig'i inson faoliyati bilan bog'liq. Zarar Shimoliy va Markaziy Osiyodan Sahroyi Kabir, janubiy Afrikagacha bo'lgan mamlakatlarda sodir bo'ladi, ularning inson salomatligiga ta'siri hali ham yetarlicha baholanmagan.



JSSTning so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 7 million bevaqt o'lim holatlariga atmosfera havosi va xonalar havosi ifloslanishi sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda havo ifloslanishi gipertoniya va ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarning kelib chiqishida xavf omili hisoblanadi. UNESCOning 257 ta o'rmon qo'riqxonalaridan o'ntasi so'nggi 10 yil ichida zaharli karbonat angidrid gazi chiqaruvchi manbaga aylangan. Bunga o'rmon yong'inlari sababchi bo'lib, yong'inlar uglerodning atmosferaga tarqalishiga olib kelib, bu esa isish va yangi yong'inlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, har yili 7 million gektarga yaqin unumdor yerlar jahon qishloq xo'jaligi aylanmasidan tortib olinmoqda, har yili dunyoda 7 million kishi havo ifloslanishi ta'siridan vafot etmoqda. 2025-yilga borib, dunyo aholisining yarmidan ko'pi sifatli suv iste'molidan mahrum bo'lishi mumkin.

### O'ZBEKISTONDAGI CHANG BO'RONLARIGA SABAB BO'LUVCHI IKKITA OMIL MAVJUD

Taxminlarga ko'ra, 2030-2050-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida havo haroratining 1,5-3 darajaga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda. Asosan Orolbo'yi hududida (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati) havo haroratining eng ko'p ko'tarilishi kuzatilishi mumkin. Bu haqda Gidrometeorologiya xizmati agentligi rahbariyati ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida ma'lum qilingan. O'z navbatida, ob-havoning bunday keskin o'zgarib borishi yog'inlar kamayishi, yerlar degradatsiyasi, chang bo'ronlarining ortishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda atrof tabiiy muhitning sezilarli darajada ifloslanishiga olib keladi. Amaliyotda, o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda chang bo'ronlariga sabab bo'luvchi ikkita omil mavjud ekanini ko'rsatish mumkin.

Tashqi omil: Afg'oniston, Qozog'iston va Turkmaniston hududlarida global iqlim o'zgarishi ta'sirida yomg'ir miqdori keskin kamaygani, suv havzalari qurishi fonida sug'oriladigan yerlarning degradatsiyaga uchrashi sababli cho'llanish avj olib, kuchli bo'ronlar sodir bo'lmoqda va qum-chang ko'tarilib, O'zbekiston hududiga kirib kelmoqda. Jumladan, O'zbekistonning g'arbiy (Buxoro) va janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo) viloyatlariga esa Turkmaniston

va Shimoliy Afg'onistonning (Afg'on shamoli) cho'l hududlarida ko'tarilgan qum va chang bo'ronlari orqali kirib kelish holati mavjud.

Ichki omillar: mamlakatda cho'llanish va yaylovlar degradatsiyasining avj olishi; qurilish maydonlari sonining ortishi natijasida shamol fonida unda chang va qum zarrachalarining havo ko'tarilishi; atmosferaga sanoat korxonalarini va avtomashinalar tomonidan zararli tutunlarning chiqarilishi asosiy omillardan biridir.

Qayd etilishicha, "O'zgidromet" agentligi hozirgi kunda 26 ta shaharning 74 ta statsionar kuzatuv punktlarida havo ifloslanishini kuzatadi. Ulardan 66 ta statsionar postlarda kuniga 3 marta havodan namuna olish amalga oshirilmoqda.

Respublikamizning 7 ta hududida – Jizzax, Guliston, Samarqand, Termiz, Nukus, Urganch va Toshkent shaharlarida o'rnatilgan sakkizta zamonaviy avtomatik monitoring stansiyalarida "Horiba" onlayn kuzatuvlar amalga oshirilayotgani ijobiy ishlardan biridir.

### TAJIRIBA VA HUQUQIY ASOS

Bugungi kunda hududlarda, ayniqsa, shaharlarda ayrim sanoat korxonalarini tomonidan tashlanmalarning atmosfera hamda suvga me'yordan bir necha bor yuqori miqdorda tashlanishi fuqarolarning turmush tarzi, hayoti va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, sanoatning asosiy tarmoqlari hisoblangan energetika, neft va gaz, kimyo, metallurgiya, qurilish materiallari kabi tarmoqlarda bu jarayon doimiy tarzda monitoring qilinmoqda.



# QONUNNIYATNING BUZILISHI

## OLIB KELISHI MUMKIN

Monitoring kuzatuv natijalariga ko'ra, oxirgi bir yil davomida 284 ta tashkilotning 552 ta ifloslantirish manbasida ifloslantirish darajasi belgilangan me'yordan ortgani aniqlangan. Jumladan, atmosfera havosiga tashlama tashlaydigan 77 ta tashkilotning 152 ta manbasida, suv havzalariga oqava suvlarini oqizadigan 169 ta tashkilotning 323 ta manbasida, tuproqlarni ifloslantiruvchi 38 ta tashkilotning 77 ta manbasida ifloslantirish darajasi belgilangan me'yordan ortgan. Shuningdek, 98 ta tashkilotning 269 ta manbasida ifloslantirish darajasi doimiy tarzda me'yordan ortgani aniqlangan. Bu esa atrof-muhit holatining yomonlashishiga, fuqarolar hayotiga salbiy ta'sir qilishiga, shuningdek, aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.



### KONSTITUSIYANING O'RNINI

O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi 49-moddasiga ko'ra, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlantirish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

Konstitutsiyaning 62-moddasida: Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar. 66-moddada: Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. 68-moddasida: Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin, – deb ko'rsatilgani ekologik xavfsizlikning huquqiy asosidir.

Yangilangan Konstitutsiyadagi ekologiyaga oid o'zgartirish va yangi normalarning ahamiyati shunda-

ki, unda, birinchidan, fuqarolarning ekologik burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanadi; ikkinchidan, ushbu normalar nafaqat fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish, balki ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga hamda ekologik xavfsizlik muammolarining oldini olishga ham xizmat qiladi.

### EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH – O'TA MUHIM MISSIYA

BMT ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligining 20-40 foizi atrof-muhit holatiga bog'liq ekan. Orolbo'yi mintaqasida bo'layotgan ekologik holat hech kimga sir emas. Ushbu global ekologik muammo 50 million nafarga yaqin mintaqaholisinining hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bejizga Prezidentimiz BMT minbarida so'zlagan nutqida Orol muammosiga alohida e'tibor qaratmagan edi. O'zbekiston tashabbusi bilan Orol bo'yicha xalqaro fond tashkil etilgan hamda BMT rezolyutsiyalari ham qabul qilingan. Bu harakatlar Orolbo'yi mintaqasi masalasining o'ta jiddiyligini ko'rsatadi va shu bois uning Konstitutsiyada alohida belgilab berilishi zamon talabiga aylandi.

Shu bois, mamlakatimizda Orol muammosi oqibatlarini bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Orol dengizi tubining 2,5 million gektarida yangi "yashil makon" yaratilmoqda. Shuningdek, Orol va Orolbo'yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash hamda ushbu hududda barqaror rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami loyihalar amalga oshirilmoqda.

Orolbo'yi masalasining Konstitutsiya darajasiga olib chiqilgani, bu orqali qoraqalpoq xalqini ijtimoiy-iqtisodiy

qo'llab-quvvatlash, mintaqaning rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi konstitutsiyaviy kafolatlanishi Orolbo'yi mintaqasi aholisi uchun munosib yashash sharoitlari yaratilishini va turmush darajasini jiddiy tarzda yaxshilanishini ta'minlaydi.

Mazkur norma aholi va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish, Orolbo'yi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ishsizlikni kamaytirish, aholi yashashi va rivojlanishi uchun qulay atrof-muhitni ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini yaratadi.

O'zbekistonning ekologik xavfsizlik sohasida olib borayotgan siyosati respublika taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimizning Murojaatnomasida e'tirof etilgan hozirgi paytda tabiatga nisbatan bo'layotgan antropogen va texnogen ta'sirlar sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nafaqat respublikada, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik vaziyatni yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

### TAKLIF VA MULOHAZALAR

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya berish tizimi jamiyat hayotida sodir bo'layotgan jarayonlar talablariga mos kelishi, o'quv tizimiga qator o'zgarishlar kiritilishi zarur. Atrof-muhitga ongli munosabat natijasida ekologik-huquqiy madaniyatni shakllantirish, o'z navbatida, tabiatga yetkazilgan zararning oldini olish va bartaraf etishda munosib ishtirok etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik-huquqiy bilim va madaniyatni yuksaltirish shart!

Buning uchun insoniyat tabiatning ongli bir bo'lgi ekanini his qilishi, tabiatni insoniyatning tug'ilishi, yashash, rivojlanish makoni sifatida anglash va fikrlashi, tabiat va jamiyat uyg'unligiga doir tabiiy va antropogen bilimlar tizimiga ega bo'lishi, tabiiy muhit bilan ongli munosabatga kirisha olish, uning holatlarini har tomonlama baholay bilish uchun bilim va malakaga ega bo'lish, atrof-muhitni tabiiy holda kelajak avlod uchun saqlash kabilarni qamrab olishi zarur.

Xullas, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi – barchamiz uchun hayot-mamot, ertangi kunimiz va kelajagimizni belgilab beruvchi eng ustuvor masaladir.

**Jumanazar XOLMO'MINOV,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
"Ekologiya huquqi" kafedrasini  
professori, yuridik fanlar doktori

### BU SOHADA BIR QATOR IJOBIY ISHLAR AMALGA OSHIRILAYOTGANINI HAM KO'RISH MUMKIN. MASALAN:



2023-yilda 147 ta sanoat korxonasi chang-gazlarni tutib qoluvchi 716 ta uskuna modernizatsiya qilinib, atmosfera havosiga 10 ming tonnadan ortiq ifloslantiruvchi moddalar tashlanishining oldi olingan.



"Zamin" xalqaro jamoat fondi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida atmosfera havosidagi maqda dispersli zarralarni o'lchovchi Yaponiyaning "Horiba" rusumli 2 ta avtomatik stansiyasi o'rnatilgan.



"Yashil makon" doirasida 416 million tupdan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekilgan.



588 gektar "qashil bog'lar", 662 gektar "qashil jamoat parklari", Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 kilometr masofada "qashil belbog'lar barpo etilgan.



O'tgan yilning kuz mavsumida atrof-muhitga ta'siri quqori bo'lgan 189 ta sanoat korxonasi atrofida 2 million 300 ming tup ko'chatlar ekilib, "qashil belbog'lar tashkil etilgani albatta kishini quvontiradi.



## 6 TALQIN

**Yangi O'zbekiston siyosati adolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko'tarish, zamonaviy va samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat xizmatchilarida korrupsiyaviy holatlarning barcha ko'rinishlariga toqatsizlik ruhiyatini shakllantirish, xalq manfaatlarini so'zsiz ta'minlash kabi yuksak g'oyalarga tayanmoqda.**

### O'NGLANISH, SILJISH QILMASAK, MILLAT OBRO'SIGA KORRUPSIYA ILLATI SOYA SOLIB TURAVERADI

Bu borada oldimizda yoshlar ongida vatanparvarlik, shu yurtning yanada rivojlantirish hamda yuksak cho'qqilarga ko'tarish hissini uyg'otish vazifasi ham turibdi. Buning uchun esa avvalo oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktabda farzandlarimiz ongiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz kushandasi ekanini singdirib, tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini jonlantirishimiz lozim. Negaki, aksariyat hamyurtlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytirish bilan birga, korrupsiyaga ham yo'l ochadi. Buni korrupsiya illatini tadqiq qilgan yetuk mutaxassislar ham tasdiqlashgan.

Ma'lumki, jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha eng samarali yo'l sifatida xalqaro darajada e'tirof etilgan. Shu bois respublikamizda Prezident virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari singari ko'plab vositalar orqali jamoatchilik nazorati yildan-yilga o'sib bormoqda. Natijada ayni paytda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash har qachongidan ham teran ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, korrupsiya oqibati bilan kurashish emas, balki sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishdek xalqaro tajribada keng qo'llanilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, o'nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro'siga korrupsiya illati soya solib turaveradi. Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi, degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolaveradi. Eng katta kamchilgimiz – korrupsiyaga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning vazifasi, deb bilishimizdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda qonun eng kuchli qurol bo'lib xizmat qilishi shart. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining 16, 17, 18-moddalarida davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish hamda ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari o'z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan, huquqiy ta'lim hamda tarbiyaga jiddiy qaragan insonlar korrupsiya illatiga yo'l qo'ymaydilar.

**To'lqin TO'XTASINOV,**  
huquqshunos, 2-darajali adliya maslahatchisi



**2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor vazifa etib belgilangan. Strategiyada korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish nazarda tutilgan.**

### OLYGOHDA KOMPLAYENS NAZORAT

2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, barcha oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini muvofiqlashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurash "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limlari tashkil etildi. Prezidentimizning 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida oliy ta'lim tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirishni tashkil etish belgilangan. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida ham "Komplayens-nazorat" tizimi joriy etilgan bo'lib, alohida bo'lim faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Korrupsiyaning oldini olish masalasida talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish yo'lga qo'yildi. O'tgan yil davomida 3 mingdan ortiq talabalar ishtirok etgan so'rovlar natijalariga ko'ra, universitetda korrupsion holatlarni sodir etuvchi professor-o'qituvchilar kuzatilmadi. O'quv jarayonlarida, imtihonlar paytida inson omilini kamaytirish, bu jarayonlar raqamlashtirilishi jadal olib borilayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, o'quv jarayoniga "HEMIS" tizimi, ilmiy faoliyatda esa "Antiplagiat" dasturi orqali magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarining tekshirilishi, budget mablag'larining sarflanishi, xaridlar jarayoni, moliyaviy boshqaruv va statistikada "O'zASBO" dasturiy majmuasi vositasida masofadan turib foydalanish

(kuzatish)ning ishga tushirilishini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Xodimlarni ishga qabul qilish, ularning faoliyatini baholash, boshqa lavozimga o'tkazish va lavozimdan ozod qilish tartibi qayta ko'rib chiqilmoqda. Xodimlarni ishga qabul qilishda nomzodlarni o'rganish amaliyoti joriy qilinmoqda. Shuningdek, universitet xodimlari bilan tuzilayotgan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha majburiyatlar kiritildi. Rahbar va mas'ul xodimlar, qabul komissiyasi a'zolari bilan korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik, korrupsion huquq buzarlarning oldini olish maqsadida tegishli huquqni muhofaza qilish organlari mas'ul xodimlari bilan birgalikda profilaktik suhbatlar o'tkazish amaliyoti ham joriy etildi.

Ko'p yillik ish tajribamdan va korrupsiyaga olib keluvchi tub sabablarni tahlil qilish barobarida shu xulosaga keldimki, korrupsiya ildiz otishi mumkin bo'lgan sohalardan muntazam ogoh bo'lib turish zarur. Ayniqsa, bu borada yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish lozim. Ular orasida korrupsiyaga qarshi qat'iy murosasizlik hissini, immunitetini, korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardandir. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masaladir. Bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik hamjihat va hamfikir bo'lishi maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishni o'zimizning burch va mas'uliyatimizga aylantirishimiz zarur.

Korrupsiyani jilovlash, korrupsion holatlar yuz bermasligi uchun har bir universitetning professor-o'qituvchisi, xodimi jamiyat va Vatan oldidagi yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdek majburiyatlarini halollik bilan bajarishi, jamiyat va qonunlarimizga zid xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishi, bu borada yuksak ma'naviyatli ziyoli ekanini kerak bo'lsa har soatda, har kuni talabalar oldida isbot etishlari lozimligini ta'kidlagan bo'lar edim.

Bu jarayon, albatta, ancha og'ir kechishi tayin, chunki korrupsiya degan illatning, kasallikning profilaktikasi ham ancha qiyin kechadi. Ba'zi "kasallar"ga qattiq ma'muriy choralar qo'llashga to'g'ri keladi, ba'zilarini esa tushuntirish, o'qitish, bilim berish yo'li bilan davolash muomalalarini olib borish maqsadga muvofiq. Zero, ilm-ma'rifat taraqqiyotning ko'zi bo'lsa, tarbiya uning miyasi, ta'lim esa yuragidir.

**Ahmadjon SAFAROV,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti  
Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i

**Konstitutsiyamizning 25-moddasiga ko'ra, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi.**

### YASHASH HUQUQI QONUN BILAN MUHOFAZA QILINGAN

Bizda o'lim jazosi tayinlanadigan jinoyatlar soni bosqichma-bosqich kamaytirilib, bu jazo to'liq bekor qilingan. Shunga qaramasdan, ayrim fuqarolar tomonidan o'lim jazosini tiklash, uni jinoyat qonunchiligiga qayta kiritish haqida takliflar ham ilgari surilmoqda. Vaholanki, demokratik va insonparvar g'oyalarni oliy qadriyat darajasiga ko'targan dunyodagi aksariyat davlatlarda o'lim jazosi bekor qilingan. Chunki yashash huquqi – har bir insonning tabiiy huquqi bo'lib, unga bu huquqni davlat emas, Yaratganning o'zi ato etgan.

1994-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida 33 ta modda bo'yicha o'lim jazosini tayinlashi mumkin edi. Keyinchalik jinoiy jazolarni liberallashtirish

natijasida 2008-yilgacha qonunchilikka muvofiq ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan edi. 2008-yil 1-yanvardan esa barcha jinoyatlar uchun o'lim jazosi bekor qilindi.

Yangilangan Konstitutsiyaga ko'ra, nafaqat o'lim jazosini bekor qilish, balki qat'iy ravishda O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanishi e'lon qilindi. Mazkur norma yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi sifatida tan olinishiga asos bo'lib, mamlakatimizda o'lim jazosini belgilash va tayinlashni taqiqlaydi. Shu tariqa davlatimiz bu o'ta jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmassligini, inson-

parvarlik g'oyalarga sodiq ekanini butun dunyoga yaqqol namoyon qiladi.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 6-moddasiga binoan, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza qilinadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan hayotdan mahrum etilishi mumkin emas. O'lim jazosini taqiqlash mazkur Paktga 1989-yil 15-dekabrda ikkinchi qo'shimcha protokol talablaridan kelib chiqadi.

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi bo'lib, qonun bilan muhofaza qilinishi bir qator davlatlarda konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. O'lim jazosi Portugaliyada 1867-yildan, Buyuk Britaniyada 1969-yildan, Fransiyada 1981-yildan, GDRda 1987-yildan, Ispaniyada 1975-yildan buyon qo'llanilmaydi.

Bugungi kunda 106 davlatda (Italiya, Norvegiya, Shvetsiya, Polsha va boshqalar) o'lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan.

**Shahobiddin HASANOV,**

jinoyat ishlari bo'yicha Termiz tuman sudi raisi



☐ Xalqimizning atoqli adibi, akademik G'afur G'ulom o'z asarlarida o'sha davrda mavjud bo'lgan bolalar huquqlariga oid masalalarni mohirona yoritib bergan. Ishonch hosil qilish uchun uning hikoya va qissalarida aks etgan holatlarni bugungi qonunchilik bilan taqqoslab ko'rish o'rinli.

## BOLA HUQUQLARINING YURIDIK TAHLILI “YODGOR” QISSASI MISOLIDA



Xususan, “Yodgor” qissasi bosh qahramoni Yodgor tug'ilmasidan oldin uning huquqlari vujudga kelgan. Ayni paytdagi qonunchiligimizda bu holat bor. Ya'ni, Yodgor bola onasining qornida 4 oyligida uning muayyan huquqlari paydo bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Yodgor dunyoga kelguncha uning huquqlari buzilmagan. Afsuski, tug'ilganidan so'ng huquqlari poymol qilingan. Buni hozirgi zamon qonunchiligi bilan solishtirish maqsadida “Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi”da qayd etilgan “Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak” degan qoidani esga olaylik. Albatta, Yodgorning qismati bugungi qonunlar talablariga zid. Zero, qonunchilik tizimi doim yangilab turiladi. Bu esa ma'lum bir ijtimoiy munosabatdan kelib chiqadi.

Qissada Yodgorning ota-onasi o'rtasida qonuniy nikoh mavjudligi tilga olingan. Ammo go'dakning onasi Mehri go'yoki Jo'rani turmush o'rtog'i sifatida ko'rsatib, farzandi bo'la turib ni-

kohtan ajraladi. Vaholanki, asar qahramoni bo'lgan go'dak endi 3 kunlik edi. Buning yana bir sababi u vaqtda nikohdan ajratish vakolati sudlarda bo'lmaganligidir. Agar bunday toifadagi masalalar sudlarda hal etilganda edi, balki asardagi noqonuniy holat yuz bermasligi mumkin edi. Oila kodeksida belgilangan nikohni u tuzilgan idorada bekor qilish shartlaridan biri er-xotinning o'zaro roziligi, ularning mulkiy nizolari hamda voyaga yetmagan farzandlari bo'lmasligidir.

Hikoyada G'afur G'ulom har bir obrazga alohida e'tibor bergan. Unda Mehrixon turli xil makr va hiylalar tufayli bolani boshqa bir insonga berib yuborib, undan qutilishga harakat qilgani va bu bir kuni pushaymonlik olib kelishini balki bilgandir. U o'z qilishi oqibatida bolaga nisbatan onalik qilish majburiyatidan qutilish barobarida onalik huquqidan ham mahrum bo'lgan. Ayni holat bugun Konstitutsiyamizning “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan

to'laonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deya belgilangan qoidasiga ziddir. Lekin o'sha davrda davlat tomonidan hatto insonning tabiiy huquqlari ham ta'minlanmaganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, qissadagi bolani asrab olish masalasi ham hozirgi umume'tirof etilgan qonunlarga zid ravishda amalga oshirilgan. Qolaversa, Jo'ra o'ziga tegishli bo'lmagan pasportni taqdim etganida organ xodimlari sezmagaliklari ham ularning kasbiy faoliyatlarini to'laonli ado etmaganliklaridan darak beradi.

“

Yana shuni ta'kidlash lozimki, hikoqamizdagi vaziyatda Jo'ra vasiy hisoblanadi. Agar buni O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarini kafolatlash to'g'risida”gi qonuni mezon bilan o'lchasak, ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar bolaning rasmiy vakillari hisoblanadi. Vasiylik 14 yoshga to'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi. Lekin asar qahramoni bo'lgan go'dak hali bir yoshga ham to'lmagan edi.

Xulosa qilib aytganda, maqsadimiz G'afur G'ulomning yuqoridagi asaridagi qahramonlarni tanqid qilish emas, balki o'tgan asrning boshlaridagi va ayni paytdagi turmush tarzi o'rtasida, shuningdek, qonunchilikda ham yer bilan osmoncha farq borligini tahlil qilishdir. Biz – yosh huquqshunoslar adiblari-mizning ijodini o'rganib, o'sha davrda mavjud bo'lgan huquqiy kamchiliklarni anglagan holda ularning takrorlanmasligiga hissa qo'shishimiz, shu orqali bugungi islohotlarning bir bo'lagiga aylanishimiz zarur.

**Sardor BAHRIIDINOV,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti 2-bosqich talabasi

☰ EHTIROM

☐ Bosh qomusimizning 58-moddasiga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi.



## BUYUKLAR ORTIDA BUYUK ONALAR BOR!

Tan olib aytish kerak, turmush yumushlarining ko'p qismi ayollarning zimmasida. Ayol – ona, umr yo'ldosh, xonadonlarimiz bekasi, opa-singillarimiz, qizlarimiz – farzandlarimizdir. Ayol sog'lom bo'lsa, jamiyat sog'lom bo'ladi. Chunki kelajak mevasi bo'lmish farzandlar onalar sabab dunyoga keladi. Ularga boshlang'ich ta'lim-tarbiya va odob-axloqni onayu momolarimiz o'rgatadi. Shunday ekan, kelajak avlodning har tomonlama barkamol bo'lishi bugungi kun ayollarining har jihatdan yetuk va barkamol bo'lishiga bog'liqdir.

Tarixga nazar tashlasak, xotin-qizlar huquqlarini din ham himoya qilganiga guvoh bo'lamiz. Islom dini odam avlodlarining ayollarga bo'lgan munosabatdagi nuqsonlarni ham tuzatdi, johiliyat davrining ayol zotiga nisbatan bo'lgan munosabatini qoraladi. Johiliyat davrida ayol zotiga o'ta past nazar bilan qaralganidan, ularning insoniy haq-huquqlari toptalganidan tug'ilgan qiz chaqaloqlarni tiriklayin ko'mib yuborish kabi razil odatlar shakllangan edi. Ushbu noinsoniy odatlarga islom dini barham berdi.

Bahor – bayramlar bilan boshlanadi. Ko'klamning ikkinchi haftasida esa ayollar bayramini nishonlaymiz. Ushbu sana Mehnat kodeksi 208-moddasida to'qqizta ishlanmaydigan bayram kunlarining biri sifatida belgilangan.

Tarixda ayollar sahna ortida juda ko'p ezgu ishlarga sababchi bo'lgani ham sir emas. Ammo XX asr boshlarida ayollarning jamoat hayotidagi o'rni yaqqolroq yuzaga chiqq boshladi. 1906 yil yanvar oyida Sankt-Peterburgda ayollar uchun birinchi rus oliy texnik ta'lim muassasasi ochildi. Nyu-Yorkda 1909 yil yanvarda dunyodagi birinchi ayollar avtopoygasi boshlangan.

Er kishini savodli qilish – bir erkakni savodli qilishni, bir ayolni savodli qilish esa, butun bir avlodning savodli bo'lishini anglatadi, – deb yozadi amerikalik voiz Brigham Yang.

Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo'lishga harakat qildim, – deydi buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz o'zining bitiklarida.

Bir haqiqatni unutmang – buyuk kishilar ortida buyuk onalar yoki fidoyi rafiqalar turgan bo'lishadi. Shunday ekan, dunyoda buyuk ayollar ham son-sanoqsiz, – deb e'tirof etgan mutafakkir, ingliz yozuvchisi Doroti Sayers naqadar haq edi.

**Baxtiyor QO'SHBOQOV,**  
Sirdaryo tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimi

### ☑ E'LONLAR

Jizzax viloyat adliya boshqarmasi tomonidan “KAFOLAT” advokatlar hay'ati advokati Ochilov Yuldashga 2018-yil 25-dekabrda berilgan GZ №0003-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda 2023-yil 3-martda berilgan 175-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi uning vafot etganligi munosabati bilan tugatildi.

\*\*\*

Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 21-fevraldagi buyrug'i bilan advokat Sharopova Muzayamga Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 25-dekabrda berilgan

advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi L-70662095-sonli litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi (advokatlik guvohnomasi №001642, 02.11.2023-y.) uning arizasi-ga muvofiq tugatildi.

\*\*\*

Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan advokat Medjidov Selim Rinatovichga 2018-yil 24-dekabr kuni berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning (NA 000111) amal qilishi hamda advokatlik maqomi advokatning o'qish vaqtiga qadar bo'lgan davrga to'xtatildi.

Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi jamoasi markazning Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi bo'limi boshlig'i Temurbek Yo'ldoshevga otasi **Anvar SHUKUROV**ning vafot etgani munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.



## 8 ADLIYA FAXRIYLARI

Ayol va oila, oila va ayol... Bu ikki so'zni qanday tartibda yozishimizdan qat'i nazar, ularni ayro tasavvur qilish qiyin, ikkisi ham bir-biriga chambarchas bog'liq. Etu tirnoq kabi shu ikki so'zda dunyoning jamiki quvonchu tashvishlari mujassamlashgan. Oilada ayolning roli uning davlat va jamiyatdagi rolidan ko'ra kuchliroq va muhimroq ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Ayolsiz, uning mehrsiz hamma yoq bo'm-bo'sh. Ayolsiz har qanday hashamatli qasrlar ham huvillab qoladi, g'arib va nursiz ko'rinadi. Ayol nafaqat baxt-saodat kaliti, mehr-muhabbat timsoli, balki ko'ngillar farog'ati, xotirjamligi, farzandlar kamoloti, tarbiyasi uchun mas'ul. Ayol o'zi himoyaga muhtoj bo'la turib, barchaga mehr ulasha olishga, ko'nglini topishga, ko'tarishga kuch topa oladigan qudratli zot!

Ham oilada, ham jamiyatda munosib o'rin egallagan, mehnati bilan qadr topgan, elda aziz, yaqinlar davrasida baxti bekam faxriy ayollarmiz esa hamisha hurmat va ehtiromga munosib. Fasli navbahorning ilk kunlarida o'zlarining qutlug' va tabarruk yoshini qarshilayotgan mo'tabar ayollarmiz bilan sahifamizda tanishasiz.



### Qadr topgan huquqshunos

Ulbosin Genjekeyeva qoraqalpog'istonlik tajribali huquqshunoslardin. U 1954-yil-

ning bahorida Qorao'zak tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini tamomlab, Qorao'zak tuman davlat notarial idorasida notarius bo'lib ish boshlagan qahramonimiz keyinchalik ToshDUning aspiranturasida tahsil oldi. O'n yildan ortiqroq vaqt mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi teri kasalliklari dispanserida, "Qishloq xo'jalik texnikasi" korxonasi, Nukus shahar Savdo bazasida huquqshunos maslahatchi vazifasida faoliyat ko'rsatdi. 1996-2002-yillarda Nukus shahar FHDY bo'limi mudirasi, pensiyaga qadar, ya'ni 2002-2011-yillarda Nukus shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limida ish yurituvchi lavozimida xizmat qildi.

Ulbosin opa qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, yillar davomida to'plagan bilim va tajribasini hamyurtlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga sarfladi, zamondoshlarining quvonch va tashvishlariga sherik bo'ldi. Inson qadri, sha'ni har narsadan ustunligini hamisha yodda tutdi. Qonunlarimizga amal qilish – demokratik davlat qurishning muhim sharti ekanini fuqarolarga tushuntirishdan charchamadi.

Ulbosin opadek kasbidan, oilasidan baxt topgan saodatli ayollar bor bo'lsin!



**Faylasuflarning "Barcha yo'llar Rimga eltadi..." degan mashhur iborasini ko'p eslaymiz. Bizningcha, "Barcha yo'llar ayol qalbiga tutashgan!" Chunki barcha shodlik va iztiroblarning vatani – ayol qalbi, har qanday baxt eng avvalo ayolning yuragini hayajonga soladi, har qanday g'alamalam eng avval ayol qalbini yaralab o'tadi.**



# Hayotimiz GULLARISIZ, Ayollar!



### Munavvar hayot yo'li

Arzigul Xatamovani Konimex tumanida deyarli har bir xonadon, ta'bir joiz bo'lsa har bir fuqaro yaxshi taniydi,

hurmat qiladi. Bu bejiz emas, albat. Arzigul opa o'z mehnati, bilimi, madaniyati bilan odamlar qalbiga yo'l topa olgan irodali ayol.

Konimex tuman matlubot jamiyatida ish o'rganuvchi-sotuvchilikdan boshlangan mehnat faoliyati tuman prokuraturasida mashinistka-kotiba, Toshkent davlat universiteti talabasi bo'lish bilan davom etdi. Buxoro viloyat ijtimoiy ta'minot bo'limida yurist-konsultant, viloyat advokatlar kollegiyasida stajyor-advokat, Konimex tuman huquqiy maslahatxonasi mudiri, o'n bir yil tuman sudining raisi lavozimida halol mehnat qildi. Yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida Konimex tuman davlat notarial idorasi notariusi bo'lib ishladi. Lozim bo'lganda, ovulma-ovul yurib notarial harakatlarini rasmiylashtirishdan og'rinmadi, hech qachon ishni paysalga solmadi, yoki bahona axtarmadi. O'z zimmasidagi mas'uliyatni yurakdan his etdi.

45 yil xalq xizmatida bo'ldi.

Navoiy viloyat adliya faxriylari Kengashi raisi Azamat Xolmo'minovning quyidagi fikrlarini qahramonimiz portretiga bir qatim chizgi, deyish mumkin.

– Oramizda shunday odamlar borki, ular qalb ko'zlarini bilan ko'radi. Bunday insonni hech qachon aldab bo'lmaydi. Arzigul opa xuddi ana shunday inson. U istagan odamning o'y-xayolini ochiq kitob kabi o'qiy oladi. Konimex tuman xalq sudida ishlagan davridagi voqealardan biri juda ibratli. Sudda tumanning cho'l hududidagi elektr chiroqlari simini o'g'irlashga uringan yosh yigitlarning jinoyatini isbotlab, jazo tayinlashda esa boshqacha yo'l tutganini, ya'ni aybdor yoshlarni o'sha jabr ko'rgan idora xodimlariga 6 oy davomida dala-dashtda tarbiyalashga berish to'g'risida qaror chiqarganini xalq hali-hanuz eslaydi.

Yoki notariuslik chog'ida otasi vafotidan so'ng onasi tirik bo'la turib, mol-mulk talashgan farzandlarning opaning salobati va bergan sabog'i sabab notarius idorasi eshigidan uzr so'rab chiqib ketgani haqida ham ko'pchilik yaxshi biladi.

Arzigul opa baxtli ona. Oilada ham o'z o'rni, o'z so'zi, o'z mas'uliyati bor. Eng katta boyligi farzandlari, nevaralari. Bu ayol kirgan davralarga doim fayz kiradi, quvonch kiradi. O'zi-

ga yarashgan salobati, tashkilotchiligi, dadilligi bilan o'ktam ayol qiyofasini yaratgan qahramonimiz hech qachon so'zidan qaytmagan. Arzigul opaning har bir ayol orzu qilsa arziydigan obrazi, munavvar hayot yo'li bor.



### Zabardast "raykom sekretari"

Yigirmanchi asrning 50-60-yillarida o'qimishli ayollar unchalik ko'p

emasdi. Ayollar erkaklar bilan bir safda, barcha og'irliklarni o'z yelkasiga olib mehnat qilgan. Mehnat faoliyatini kolxozda 1959-yilda xo'jalikda oddiy kolxozchi sifatida boshlagan Nozik Chalayeva ham yillar davomida o'qishda va mehnatda chiniqdi. Qarshi davlat universitetining pedagogika fakultetini tamomlab, maktabda o'qituvchilik qildi. Oradan bir yil o'tib, Qamashi tumanidagi "Oqrabot" qishloq sovetining raisi, qator yillar "Partiya XXII s'ezdi" xo'jaligi (kolxoz) raisi vazifasida ishladi. 1973-1977-yillarda Qamashi tuman partiya qo'mitasining birinchi kotibi darajasiga ko'tarildi. Zabardast "raykom sekretari" tuman aholisi bilan birga nafas oldi, ularning og'irini yengil qilishni o'z vazifasi, burchi deb bildi.

Bir necha yil viloyat ijroiya qo'mitasi ijtimoiy ta'minot bo'limi mudiri, viloyat ijroiya qo'mitasi FHDY (ZAGS) bo'limining mudiri, keyinchalik viloyat ijroiya qo'mitasi adliya boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari va Qarshi shahar Nikoh uyi direktori lavozimida faoliyat olib bordi.

So'zi bilan ishi bir bu ayol mehnat qilgan sohalarning barchasida namunalijtimoiy-ma'naviy muhit yaratishga, qishloq bilan shahar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga harakat qildi, xotin-qizlarga munosib mehnat sharoitlari yaratishga, qizlarning oliy ta'lim dargohlarida o'qish darajasini ko'tarishga munosib hissa qo'shish tarafdori bo'ldi.

Eng muhimi, yurtimiz mustaqillikka erishishidan oldingi murakkab davrda ayolning davlat va jamiyat qurilishida munosib o'rni borligini o'z hayoti, o'z xizmati, o'z yurish-turishi bilan ko'rsata olgan Nozik Chalayevaning mehnatlari munosib baholandi. 1968-yilda "Hurmat belgisi", 1978-yilda "Mehnat-shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi.

Nozik opa singari elda aziz bo'lish, umridan, taqdiridan minnatdor yashash, ko'ngil xotirjamligi har kimga nasib etsin!

**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri